

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

III Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 3-SON

2025-YIL

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, noyabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-8337-3-1

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 3-son (noyabr, 2025-yil). – 42 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 2-noyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Babajanova Mexribonjon

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'YI INTELLEKT ASOSIDA TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH 4-6

Ismailova Zumrad, Anarbaev Anvar, Vaxidov Umid

ISSIQXONADA HAVOSINI BUG'LATIB SOVUTISH TIZIMI UCHUN SHAMOLLITGICH QURILMANING RATSIONAL ELEKTR PARAMETRLARINI ANIQLASH 7-12

TARIX FANLARI

Narzullayeva Zulxumor

SALJUQIY HUKMDORLARNING MAMLAKATDAGI ZIYOLILAR QATLAMIGA VA TA'LIMGA KO'RSATGAN E'TIBORI 13-16

FILOLOGIYA FANLARI

Begmatova Dilorom

DARIY TILI GAZETA MATNLARIDAGI HOKIMIYAT ORGANLARI VA ULARNING FAOLIYATI BILAN BILAN BOG'LIQ SIYOSIY EVFEMIZMLAR 17-19

YURIDIK FANLAR

Shorasulova Gulnoza

RAQAMLI MAKONDA BOLALARNING SHAXSIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA "XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT" TAMOIYILINING AMALIY IFODASI 20-25

Maxmudova Hurmatxon

FUQAROLARNING YURIDIK YORDAM OLIH HUQUQI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI 26-30

PEDAGOGIKA FANLARI

Xakimov Tulanboy

TARIX O'QITUVCHISINING NUTQ MADANIYATI VA HIKOYALASH MAHORATI — NARRATIV YONDASHUVNING ASOSI 31-33

Pulatova Lobar

LINGUOCULTUROLOGY AND MEDIA TEXT: THEIR INTERRELATION 34-37

SIYOSIY FANLAR

Umarova Nilufar

STRATEGIC RESILIENCE AND REGIONAL LEADERSHIP: UZBEKISTAN'S PATH THROUGH THE FOURTH INDUSTRIAL REVOLUTION 38-41

FUQAROLARNING YURIDIK YORDAM OLIISH HUQUQI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI

Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna

Buxoro Davlat Universiteti

Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Email: Thurmat156@gmail.com

Ilmiy rahbar: G'.A.Yangiyev

Dotsent,

Buxoro Davlat Universiteti "Yurisprudensiya va ijtimoiy siyosi fanlar" kafedrası

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada fuqarolarning yuridik yordam olish huquqi inson huquqlarining ajralmas qismi va adolatli sudlovning kafolati sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu huquqning nazariy-huquqiy asoslari, xalqaro va milliy me'yoriy hujjatlardagi o'rni hamda O'zbekiston amaliyotida uning ta'minlanish darajasi tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi. BMT, UNDP, OECD, World Justice Project kabi xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlari asosida yuridik yordam institutining xalqaro standartlari va ularning milliy tizim bilan muvofiqlik darajasi solishtiriladi. Maqolada O'zbekistonda yuridik yordam markazlari faoliyatining kengayishi, advokatura institutining mustahkamlanishi hamda huquqiy xizmatlarning raqamlashtirilishi jarayonlari yoritiladi. Tadqiqot yakunida yuridik yordam tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro tajribani milliy amaliyotga moslashtirish va fuqarolarning adolatga erishish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: yuridik yordam, advokatlik, inson huquqlari, adolatli sudlov, xalqaro tajriba, fuqarolik jamiyati, O'zbekiston qonunchiligi.

CITIZENS' RIGHT TO LEGAL AID: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN PRACTICE

Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna

Bukhara State University Student of Jurisprudence Education Direction

Scientific Supervisor: G.A. Yangiyev

Associate Professor,

Bukhara State University "Jurisprudence and Social-Political Sciences" Department

Annotation. This scientific article analyzes the right of citizens to receive legal aid as an integral part of human rights and a guarantee of fair trial. The study examines the theoretical-legal foundations of this right, its place in international and national normative documents, as well as the level of its provision in Uzbekistan's practice through an analytical approach. Based on data from international organizations such as the UN, UNDP, OECD, and World Justice Project, the international standards of the legal aid institution and their compatibility with the national system are compared. The article highlights the expansion of legal aid centers' activities in Uzbekistan, the strengthening of the advocacy institution, and the processes of digitizing legal services. At the conclusion of the study, scientific-practical proposals are developed for further improving the legal aid system, adapting international experience to national practice, and expanding citizens' opportunities to access justice.

Key words: legal aid, advocacy, human rights, fair trial, international experience, civil society, Uzbekistan legislation.

KIRISH.

Har bir demokratik davlatda fuqarolarning yuridik yordam olish huquqi inson erkinliklari va adolat tamoyillarining muhim asoslaridan biridir. Bu huquq fuqaralarga o'z manfaatlarini qonuniy yo'l bilan himoya qilish imkonini beradi va jamiyatda adolatli sudlovni

ta'minlaydi. Yuridik yordamning ta'minlanishi inson huquqlarining asosiy qismi bo'lib, u davlatlarning inson huquqlarini himoya qilishdagi majburiyatlaridan biridir.

Yuridik yordam olish huquqi xalqaro huquq hujjatlarida ham mustahkamlangan. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida (1948) va Fuqarolik hamda siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktida (1966) har bir inson malakali yuridik yordam olish huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan. Bu huquq insonlarning adolatli sudlov va huquqlarini himoya qilish uchun muhimdir.

Shuningdek, dunyo bo'yicha yuridik yordamga kirish imkoniyati global muammo sifatida tan olinmoqda. World Justice Project ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 5,1 milliard kishi hali ham adolatli sudlov imkoniyatidan to'liq foydalanmayapti. Bu muammo yuridik yordamga kirishdagi cheklovlar va resurslarning yetishmasligi bilan bog'liq bo'lib, inson huquqlarini himoya qilishda muhim to'siq hisoblanadi.

Yuridik yordamga kirish imkoniyatining cheklovlari insonlarning huquqlarini buzilishiga olib kelishi mumkin va jamiyatda adolatli sudlov tizimining samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli, davlatlar va xalqaro tashkilotlar yuridik yordamni kengaytirish va uni ta'minlash uchun qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqishlari zarur. Bu muammo hal qilinmasa, inson huquqlari va adolat tamoyillari buzilishining oldini olish qiyin bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Yuridik yordam tizimi bo'yicha xalqaro miqyosda bir qator tadqiqotlar olib borilgan. UNDP va UNODC tomonidan tayyorlangan "Global Study on Legal Aid" hisobotida 110 ta mamlakatda yuridik yordam tizimlari o'rganilgan. OECDning 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, huquqiy yordam tizimining sifat ko'rsatkichi 0,65 ballni tashkil etadi. J. Rawls o'zining "Adolat nazariyasi" asarida yuridik tenglikni ijtimoiy adolatning asosi sifatida ko'rsatgan. O'zbekistonlik olimlardan A. Sattorov, G. Nuriddinova va Z. Xudoyorov advokatlik faoliyatining modernizatsiyasi, davlat hisobidan ko'rsatiladigan yuridik yordam mexanizmlari haqida ilmiy ishlanmalar olib borgan.

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanilgan:

1. Normativ-huquqiy tahlil – xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar o'rganildi.
2. Taqqoslama-huquqiy tahlil – O'zbekiston tajribasi Germaniya, Janubiy Koreya va AQSh amaliyoti bilan solishtirildi.
3. Statistik tahlil - UNDP va Adliya vazirligi ma'lumotlariga asoslanib, yuridik yordamdan foydalangan fuqarolar soni tahlil qilindi.
4. Empirik yondashuv-advokatlar, sudyalalar va aholining huquqiy ong darajasi haqidagi so'rovnomalar asosida natijalar keltirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

UNDP ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda so'nggi uch yil ichida 28 500 dan ortiq shaxs (ayollar, yoshlar, nogironlar) bepul yuridik yordam olgan. Bu natija mamlakatda inson huquqlarini ta'minlash borasida ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatadi. Biroq 2023-yil holatiga ko'ra, respublika bo'ylab atigi 5665 nafar advokat faoliyat yuritmoqda, bu esa bir advokatga o'rtacha 6460 fuqaro to'g'ri kelishini anglatadi. Bu nisbat Yevropa davlatlariga nisbatan past, bu esa tizimning hududiy qamrovini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

1-jadval

Milliy va xalqaro yuridik yordam tizimlari taqqoslanmasi:			
1	Davlat / Tashkilot	Yuridik yordam qamrovi	Moliyalashtirish manbasi
2	Germaniya	Har bir fuqaro daromadidan qat'i nazar yuridik yordam olish huquqiga ega	Davlat budjeti
3	Janubiy Koreya	Onlayn bepul yuridik maslahat platformalari mavjud	Davlat + xususiy sektor
4	AQSh	<i>Legal Services Corporation</i> orqali bepul yordam tizimi	Federal hukumat
5	O'zbekiston	Yuridik yordam markazlari orqali bepul xizmat	Davlat hisobidan

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston tizimi xalqaro standartlarga yaqinlashmoqda, ammo hali ham moliyaviy resurslar va advokatlar soni jihatidan yetarlicha quvvatga ega emas. World Justice Project ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda dunyo bo'yicha 49 foiz aholi kamida bitta huquqiy muammo bilan duch kelgan. Bu esa fuqarolarning yuridik yordamga bo'lgan ehtiyoji keng ekanini ko'rsatadi. O'zbekistonda esa ayrim fuqarolar hali ham o'z huquqlarini bilmagani yoki ishonchsizlik sabab murojaat qilmasligi muammosi saqlanib qolmoqda. Bu muammolarni hal etish bo'yicha yuridik yordam va rivojlantirish bo'yicha takliflar O'zbekistonning yuridik sohasini rivojlantirish va aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan. Quyida har bir taklifning asosiy maqsadlari va amalga oshirish usullari haqida batafsil ma'lumot keltirilgan:

1. Yuridik yordam markazlarini kengaytirish.

Har bir tuman va shaharda yuridik yordam markazlarini tashkil etish va ularni ko'paytirish orqali aholining huquqiy yordamga bo'lgan ehtiyojini qondirish. Mobil yuridik xizmatlarni joriy etish orqali, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchilarga tez va qulay huquqiy yordam ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Bu tashabbus, ayniqsa, ijtimoiy muammolar va huquqiy adolatsizliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

2. Huquqiy yordamni raqamlashtirish.

Onlayn platformalar orqali ariza topshirish va masofaviy maslahat tizimlarini yo'lga qo'yish orqali, huquqiy yordam olish jarayonini soddalashtirish va tezlashtirish mumkin. Bu, ayniqsa, pandemiya davrida va kelajakda keng tarqalgan masofaviy xizmatlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Raqamli texnologiyalar yordamida, huquqiy yordamga ehtiyoj sezadiganlar uchun qulay va ochiq imkoniyatlar yaratiladi.

3. Advokatlarning malakasini oshirish va "Pro bono" faoliyatini rag'batlantirish.

Advokatlarning professional malakasini oshirish uchun maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish, shuningdek, "Pro bono" (bepul) yuridik xizmatlarni rivojlantirish orqali, kam ta'minlangan qatlamlarga yordam ko'rsatish imkoniyatlari kengayadi. Bu, yuridik sohada ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiradi va advokatlarning jamiyatdagi rolini mustahkamlaydi.

4. Huquqiy madaniyatni oshirish.

Teleko'rsatuvlar, o'quv dasturlari va forumlar orqali, aholining huquqiy bilimlarini oshirish va huquqiy madaniyatni rivojlantirish maqsadida keng ko'lamli axborot va ta'lim dasturlari tashkil etiladi. Bu, ayniqsa, yoshlar va keng jamoatchilik orasida huquqiy ongni oshirish uchun muhimdir.

5. Genderga asoslangan yondashuvni kuchaytirish.

Ayollar va nogironlar uchun alohida yuridik yordam liniyalari yaratish orqali, ularning huquqlarini himoya qilish va teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Bu tashabbus, inson huquqlarini ta'minlash va ijtimoiy adolatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

6. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

O'zbekiston advokatlarini BMT, YXHT va OECD kabi xalqaro tashkilotlar dasturlarida ishtirok etishga qo'llab-quvvatlash, mamlakatning yuridik sohasida xalqaro standartlarga moslashuvini ta'minlaydi. Bu, shuningdek, yuridik sohada xalqaro hamkorlik va tajriba almashishni rivojlantirish uchun muhimdir.

Ushbu takliflar, yuridik sohasini yanada rivojlantirish va aholining huquqiy madaniyatini oshirish uchun muhim qadamlar bo'lib, ularni amalga oshirish orqali, O'zbekistonda adolat va huquqiy barqarorlikni ta'minlash mumkin bo'ladi.

XULOSA.

Fuqarolarning yuridik yordam olish huquqi - bu adolatli sudlovning eng muhim kafolatlaridan biri, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash tizimining ajralmas qismidir. Har bir fuqaroning o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lishi demokratik huquqiy davlatning asosiy belgisidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yuridik yordam tizimi nafaqat shaxsiy huquqlarni himoya qiladi, balki jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashga, ijtimoiy adolatni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda yuridik yordam tizimini takomillashtirish borasida muhim natijalarga erishdi. Xususan, bepul yuridik yordam markazlari tashkil etildi, aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun advokatlik xizmatlariga davlat tomonidan moliyaviy ko'mak ko'rsatilmogda, shuningdek, aholiga masofadan turib huquqiy maslahat berish tizimi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmogda. Bu islohotlar fuqarolarning adolatga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga, inson huquqlarining real himoyasini ta'minlashga xizmat qilmogda.

Biroq tizimni xalqaro standartlarga to'liq moslashtirish yo'lida hali bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ham mavjud. Xususan, yuridik yordam markazlarining sonini oshirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, malakali yurist va advokatlarini jalb etish, shuningdek, xizmat ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, aholining huquqiy ong va madaniyatini oshirish, huquqiy savodxonlikni ta'lim tizimi orqali shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali yuridik yordam tizimini avtomatlashtirish, onlayn platformalar orqali bepul maslahatlar berish, arizalarni masofadan qabul qilish imkoniyatlari fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish jarayonini yengillashtiradi. Bu esa nafaqat fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga, balki davlat idoralarining ochiqqligini, shaffofqligini va samaradorqligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, yuridik yordam tizimini rivojlantirish - bu adolatli jamiyat barpo etishning muhim bosqichidir. Fuqarolarning yuridik yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish

orqali ularning davlat institutlariga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi, inson huquqlari kafolatlari yanada kuchayadi va huquqiy davlat tamoyillari amaliyotda o'z ifodasini topadi. Shu bois, ushbu sohadagi islohotlarni izchil davom ettirish O'zbekistonning demokratik taraqqiyot yo'lida strategik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023.
2. "Advokatlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun, 2021.
3. UNDP Uzbekistan. Progress and Achievements Report, 2024.
4. World Justice Project. Global Insights on Access to Justice, 2023.
5. OECD Legal Aid Systems Report, 2023.
6. European Convention on Human Rights, 1950.
7. Rawls J. A Theory of Justice. Harvard University Press, 1971.
8. Nuriddinova G. O'zbekistonda yuridik yordam tizimi, TMI, 2021.
9. Sattorov A. Advokatlik institutining rivojlanish istiqbollari, 2022.
10. YXHT Legal Reform Programs, 2023

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, noyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-jild, 3-son (noyabr, 2025-yil). – 42 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 2-noyabr

ISBN-978-9910-8337-3-1

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.